



DINIY OG'ISHNI O'RGANISHGA DOIR YONDASHUVLAR

O'rinboyev Humoyun Iftixor

xususiy maktabi psixologi

Diniy og'ish muammosi ko'pgina olimlar tomonidan qiziqish bilan o'rganilmoqda. Ayniqsa, bu muammo XXI asr birinchi choragidan boshlab yangi pog'onaga ko'tarildi deyishimiz mumkin. Bunga ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy hamda psixologik sabablarni misol qilib keltirish mumkin.

Ushbu muammoni chechen yoshlarida o'rganishga harakat qilgan E.S Abdulaev yoshlardagi diniy fanatizm sabablariga alohida to'xtalib o'tgan. Muallifning qayd etishicha, Checheniston Respublikasida yoshlar orasida dinga ishtiyoq kuchli hamda bu jarayon shiddat bilan o'sib bormoqda. Quyida chechen yoshlari orasida so'nggi paytlarda kuzatilgan diniy aqidaparastlikning paydo bo'lish sabablari tahlil qilinadi.

Bugungi kunda biz odamlarning dinga tobora ko'proq qiziqayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz va bu holat hozirgi sharoitlarda ajablanarli emas. Ammo, chechen respublikasidagi so'nggi o'n yillikdagi diniy vaziyatni tahlil qiladigan bo'lsak, bugungi kunda yoshlar o'rtasida diniy yuksalishning yorqin namoyon bo'lishini kuzatish mumkin. Bu faktni ularning ta'sir darajasiga ko'ra ikki tomondan ko'rib chiqish mumkin.

Ijobiy tomoni hamma ma'lum: din tarbiyachi hamda regulyatorlik vazifasini bajaradi va bu holat jamiyatda yoshlar tarbiyasiga e'tibor qaratuvchi g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Salbiy tomoni - yoshlar orasida fanatizmning paydo bo'lishi.

Agar biz diniy aqidaparastlikning sabablarini ko'rib chiqsak, unda zamonaviy Chechenistondagi ijtimoiy vaziyatni tahlil qilib, quyidagilarni ta'kidlaymiz:

- dinni hodisa sifatidagi bilimlarining yetishmasligi. Bir xil muhitda voyaga yetgan yoshlar ota-onasidan tanqidiy fikr yuritmasligi bilan ajralib turadi. Ular uchun diniy ong – bu butun bir borliq, shunga binoan, har qanday o'zgarish yoki yangilik bid'atdir. Boshqa har qanday konfessiyaga mansub insonning diniy ongiga xos bo'lgan umuminsoniy xususiyatlar ular uchun yolg'on deb hisoblaniladi yoki ularni “e'tiqodi buzilgan”ga chiqariladi.

- oilada diniy ta'limning yo'qligi. Ko'pincha yoshlar islom dini haqidagi bilimlarini boshqa ijtimoiy sub'ektlardan olishadi. Ularning ota-onalari dastlabgi diniy tushunchalarni berishdan u yog'iga o'ta olishmaydi. Bu jarayonda ular sotsializatsiya sub'ekti emaslar hamda shu bilan birgalikda yoshlarga islomning asl mohiyatini tushuntirishda bilimlarning yetishmasligi ko'rinadi.

- ijtimoiy-psixologik keskinlik. Ko'pincha, odam o'zi bilan turli xil salbiy holatlar yuz berganda dinga murojaat qiladi. Ko'pgina yoshlarning ijtimoiy beqarorlik va kelajakdagi istiqbolni ko'ra olmasliklari, ularning fikriga ko'ra, yoshlarni din bilan munosabatlarga undaydi. Din nevrozga qarshi himoyadir, chunki u inson xohlagan narsani amalga oshirishi va shunga mos ravishda istaklarning ro'yobga chiqishi kabi his-tuyg'ularni yaratadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Shveysariyalik psixolog K.Yung individual ongsizlikdan tashqari, arxetiplarda ifodalangan hamda mifologiya va din obrazlarida mujassamlangan kollektiv ongsizlik mavjud, deb hisoblagan. Kollektiv ongsizlik yer yuzidagi barcha odamlar uchun bir xil, chunki u insonning tana tuzilmasi tufayli dinning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Turli xalqlarning diniy g'oyalarida mavjud bo'lgan farqlar bu xalqlarning tarixan shakllangan urf-odatlarini, an'analari, marosimlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Din, Yungning fikriga ko'ra, ongni halokatli omillardan – shaxs ongining yashirin ongsiz kuchlaridan himoya qilishning muhim funksiyasini bajaradi.

U shaxs ongida sodir bo'layotgan salbiy holatlarni shaytonning harakatlari bilan, yorqin tomonlarini esa Xudoga bo'lgan ishonch bilan izohlaydi. Insonga o'z ongiga bog'liq bo'lgan holatlarni yengishdan ko'ra, obektiv, tashqi omillarga bog'liq bo'lgan tasvirlarni yengish osonroqdir. Har qanday dinda insonni g'ayritabiiy, g'ayrishuuriy kuchlardan himoya qilishga qaratilgan harakatlar tizimi, marosimlari mavjud. Yung bu ma'noda dinni hech qachon yengib bo'lmaydi, deb hisoblardi, chunki uning asosi - inson psixik xususiyatlari o'zgarmas voqelikdir.

E.S Abdulaevning fikricha, dinning zamonaviy dunyoda o'rni ko'pincha ijobiy bo'ladi, qachonki insonlar uning shaxsiy ongga ta'sir darajasini hisobga olsa. Ammo bugungi kunda jamiyat nuqtai nazaridan, u ko'proq ajratuvchi va tormozlovchi omil bo'lib ko'rinadi. Insoniyatning yaqin tarixida din u yoki bu tarzda jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatdi. Turli davrlarda uning ro'li kuchayib ketdi yoki orqa fonga o'tdi. Insonning zamonaviy diniy ongi avvalgi davrlardagi kabi xususiyatlarga ega: o'ta aqlli g'ayritabiiy mavjudot, odatdagi kabi Xudodan tasalli istagida. Din insonga, eng avvalo, shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarurdir.

Zamonaviy dunyoda fan dinga qarshi kurashni o'z vazifalaridan biri deb hisoblamaydi, bu faoliyat shakllarining har biri o'z vazifalarini bajaradi, o'z muammolarini hal qiladi. Fanning ishi tabiat va jamiyat haqidagi aniq bilimlar tizimini yaratish, din ishi qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan odamga yordam berish, umid berish, dunyoqarash muammolarini hal qilishdir. Din har qanday etnik guruh, millatning madaniy qatlamidir. Uning o'tmishi va buguni va albatta, aniq kelajagi bor. O'tmishda etnosning ijtimoiy-madaniy voqeligida qat'iy axloqiy qonun tamoyillari asosiy o'rin tutgan. Insonning ekzistensial ehtiyojlari vaqt o'tishi bilan o'zgarmasligini tushunishimiz kerak. Ko'pincha yoshlar "universal erkinlik" ning bu axborot oqimida adashib qolishadi, shu bilan birga, ayrim yoshlarning ijtimoiy noroziligi kelajakka nisbatan istiqbolning yo'qligi, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlarning yetishmasligi va boshqalar bilan bog'liq.

Bizning fikrimizcha, dinni jamiyat hayotidan butunlay olib tashlab bo'lmaganidek, diniy aqidaparastlikni ham butunlay yo'q qilib bo'lmaydi. Diniy fanatizm bir qator muhim ijtimoiy-psixologik funktsiyalarni bajaradi, bu uning madaniyatdagi faol faoliyatini belgilaydi. Diniy aqidaparastlikning oldini olishning yagona yo'li bu diniy bag'rikenglik (tolerantlik) yo'lidir, bu nafaqat, din ulamolari, va faylasuflar tomonidan ko'rsatib o'tilgan, balki, sotsiolog hamda psixologlar tomonidan ham ko'rib o'tilgan. Ammo axloqiy qonunga



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



muvofig yashash har doim ham insonning asosiy haqiqati va ekzistensial ehtiyoji bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. А.В.Жуков Церковь Объединения: вероучение, идеологиям практика: Автореф.-СПб, 1995. - С.15.
2. Филимонов Э.Г. Социальная и идеологическая сущность религиозного экстремизма Э.Г.Филимонов — М., 1983. — С. 6-7.
3. Игнатенко А.А. Правоверность, доказываемая ненавистью: Ваххабизм в изложении его сторонников А.А. Игнатенко Независимая газета. - 2001. — 14 сент. — С.11.
4. Ц.А.Дмитриев Шахиды на русской земле Н Г-религии. - 2002. - М - С . 2.

